



FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA

[Jild: 03 Nashr: 5 (2024)] ISSN: 2992-8915

www.mudarrisziyo.uz

MAQOLLARNING LINGVISTIK TADQIQI XUSUSIDA

Abdullayeva Nilufar Nasulloyevna¹,
Muhamadova Gulchiroy Mirjon qizi²

¹ Buxoro Davlat Universiteti Xorijiy tillar fakulteti Fransuz filologiyasi kafedrasи o'qituvchisi

² Buxoro Davlat Universiteti Xorijiy tillar fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish (fransuz tili) ta'lif yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqollarning kelib chiqishi hamda ularning lingvistik tadqiqi, xususan, maqollarni o'rgangan olimlar va ularning maqollar ustida olib borgan izlanishlari, asarlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: folklorchilik, zarbulmasal, matal, maqollar strukturasi, ularning semantikasi, nasr, "Devoni lug'otit turk", "O'zbek xalq maqollari", "Ma'nolar maxzani".

Maqollar – xalq folklorchiligining eng yorqin merosidir. Ular xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko'rsatadigan xalq og'zaki ijodining gavhari hisoblanadi. Maqollarni, xususan, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Maqollar xalq og'zaki ijodi yorqin mahsuli hisoblanadi. Maqollar shakliga ko'ra ixcham, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlardan biridir. Aytishimiz mumkinki, maqollarning vujudga kelishiga sabab, xalqning ko'p asrlar davomida, insonlarning hayotiy kuzatishlari, turli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tajribalariga asoslangan. Shu uchun ham har bir maqolning mazmun-mohiyatida ko'p asrlik o'ziga xos tajriba va hayotiy tarbiyaviy ahamiyat aks etadi.

Xalq maqollari uzoq yillar davomida turmush tajribalarida va turli xil sharoitlarda bir necha martalab sinovdan o'tgan. Har bir xalqning va har bir millatning o'ziga xos maqollari mavjuddir. Maqollar o'zgarmaydi, ya'ni har bir millatdagi maqollarning ham kelib chiqishi xalqning bir necha yillik tajribasi asosida yuzaga kelgan. Tarixiy manbalar va xalq orasida maqolar turli xil atamalar bilan nomlanib kelgan. Masalan : maqol, matal, naql, masal, zarbulmasal, hikmatli so'z, ibora va hakozo. Aytishimiz mumkinki, ularning vujudga kelishi tilshunoslar, shuningdek, boshqa turli soha vakillarini, xususan, etnograflar, madaniyatshunoslar, folklorshunoslar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, psixologlar, faylasuflar va boshqalarni ham qiziqtirib qo'ygan.

Maqollar – xalq og‘izaki ijodi bo‘libgina qolmay ,balki xalq tajribasi, uning nafasi, yig‘isi, shodligi va sevinchi, qayg‘usi va ovunchi hamdir, xalq haqiqati, uni to‘g‘ri yo‘lga eltuvchi mayoq vazifasini ham bajarib kelgan. Ular uzoq yillar mobaynida inson turmush tajribalarida va turli xil sharoitlarda ko‘pgina sinovlardan o‘tib kelgan. Maqollar o‘zgarmaydi, ular shakliga ko‘ra ixcham, ammo chuqur mazmunga ega bo‘lgan janrlardan biridir. Aslida ilk maqollar qadim zamonlarda paydo bo‘lgan. Maqol atamasi arabcha “qavlun” – gapirmoq, aytmoq degan ma’nolarni anglatgan. Maqollarning paydo bo‘lish sinoatlari ularning mazmunida yashiringan. Maqollarning ko‘pchiligi insonlar orasidagi munosabatlar, urf-odatlar maydoniga kirib boradi va shu maydonning ajralmas qismiga aylanadi. Maqollardagi fikr she’riy voqelik – badiiy shakldir”.

Maqolning mataldan farqi: "matal – nutqda emotsiyal baho uchun mavjud bo‘lgan va bir qator o‘xshash hayotiy hodisalarga nisbatan muqobillik tamoyiliga ko‘ra qo‘llaniluvchi umumqabul qilingan obratzli ifodadir. Agar maqol nutqni alohida mazmun, yangi bir butun xulosa bilan mustahkamlayotgan bo‘lsa, matal bir tugal fikr, xulosa ichiga to‘laqonli bir bo‘lak sifatida kiritiladi”.

O‘zbek xalq maqollarining o‘rganilish tarixi XX-asrning 30-yillariga borib taqaladi. O‘zbek xalq durdonalarini, o‘zbek xalq ijodining ommaviy janrlaridan biri bo‘lgan maqollarni to‘plash va o‘rganish, ularning qator yozuvchi va olimlarning asarlarida o‘z aksini topgan. Xususan, maqollarni o‘rganishning yangi struktur-semantik yondashuvi yuzaga kelgan. Jumladan XI asrning buyuk olimi M. Koshg‘ariy ham o‘zining “Devonu lug‘atut turk” asarida turk tili oilasiga kiruvchi xalqlarning maqollaridan keng foydalaniib o‘tgan. Bu asar yolg‘iz o‘sha davr tilidagi so‘zlarni izohlovchi kitobgina emas, balki shu vaqtida ham butun O‘rta Osiyo doirasida, ya’ni, Yuqori Chindan tortib Movorounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta hududda yashagan urug‘, qabilalari, xalqlar, ularning tillari, o‘sha davr xalq og‘zaki ijodiy maqollari to‘g‘risida ham ma’lumot beruvchi noyob filologik asar hisoblanadi. Demak, bu qimmatli ilmiy va nodir asar xalq og‘zaki ijodining butun yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan, ayniqsa, xalq maqollarini o‘rganuvchi ilmiy fikrlarni sharhlashda xalq maqollariga katta e’tibor bergen, ilk marta xalq maqollarini yig‘uvchi asardir. Ushbu asari haqida M. Koshg‘ariyning o‘zi shunday yozadi: “Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, sahlar, maqollar, qo‘schiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim”. Demak, o‘zbek xalq maqollarini to‘plash va o‘rganish XI asrda Mahmud Koshg‘ariy tomonidan boshlab berilgan. Uning “Devoni lug‘otut turk” asarida 275 ta maqol keltirib o‘tilgan.

Bu sohada ham boshqa millat vakillari olimlari ham samarali ishlar olib borishgan. Masalan, tilshunos olimlardan Nida ham bir xalqning tilini o‘rganishda uning madaniyatini ham o‘rganish joiz ekanligi to‘g‘risida ta’kidlab o‘tadi.

Yana bir tilshunos va folklorshunos olim V.Teliya ham madaniyatni til bilan bog‘liqligida paremiologiya sohasini ta’kidlab o‘tadi.

Biz bilamizki, etnograflar qadimgi shohlardan Abbas Safoviyning amri bilan maqol va matallarimiz bir joyga jamlangani haqida ma’lumot beradilar. Afsuski, bu majmua bugungi kungacha yetib kelmagan. Bunaqangi memuar asarlarimiz juda ko‘p, shu o‘rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta’kidlab o‘tamiz. Masalan, mashhur masalnavis – Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida ham 300 dan ortiq o‘zbek xalq maqollari bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiv o‘zining «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqolni she’riy vaznga solganligi ham e’tiborga loyiq hodisadir.

Xalq maqollarini ilm obyekti sifatida o‘rganish va to‘plash XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Ma’lumot o‘rnida o‘zbek xalq maqollarini to‘plash va nashr qilishda missioner N.G.Ostromovning xizmati katta.

Bir qancha o‘zbek olimlari tomonidan maqollarni tahlil qilishga e’tibor qaratilgan. Jumladan, Sh.Shorahmedov, X.Sharafiddinov va X.Abdurahmonov kabi olimlar maqollarning til xususiyatini

yorituvchi tadqiqotlarni olib borganlar. Maqollarning yangi nashrlari bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar sifatida B.Sarimsoqov, K.Imomov, va X.Abdurahmonovlarning amalga oshirgan ishlari maqtovga sazovordir. Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoraxmedovlar o‘zlarining “Ma’nolar maxzani” to‘plamida maqollarni alifbo tartibida joylashtirganlar. Bu to‘plam 20 ming maqolni o‘z ichiga oladi. Unda maqollarning etimologiyasi va muqobilari keltirilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maqollarni lingvistik tadqiq qilish ular bilan bog‘liq bo‘lgan til va madaniyatni tushunish va tahlil qilish imkonini beruvchi muhim tadqiqot sohasidir. Chunki ularning lingvistik tadqiqi tilning tuzilishi va uning xususiyatlarini tushunishga, tilning grammatik va stilistik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Maqollar xalq madaniyati va an’analaring muhim qismidir. Ular jamiyatning mentaliteti va qadriyatlarini, uning tarixi va o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Maqollarni lingvistik, ya’ni, aynan leksik jihatdan o‘rganish bu iboralarda shifrlangan ijtimoiy me’yorlar, donolik, axloq haqidagi g‘oyalarni tushunish imkonini beradi.

E’tiborga olish kerak bo‘lgan yana bir jihat shundaki, turli tillar va madaniyatlarga mansub maqollarni qiyosiy o‘rganish orqali biz umumiy mavzu va motivlarni, shuningdek, fikrni ifodalashdagi farqlarni aniqlashimiz mumkin. Bu madaniyatlar va tillarni qiyosiy o‘rganish va jahon madaniyati xilma-xilligi haqidagi tushunchamizni boyitish uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qoshg‘ariy M. ”Devoni lug‘atut turk”, 1-tom. Toshkent, 1960, 44-45-betlar.
2. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent, 1987, 27-30-betlar.
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. “Ma’nolar maxzani”. Toshkent, 2001.
4. Абдуллаева, Н. Н. "Мақол ва ҳикматли сўзларнинг паремиологик майдони." "Сўз санъати" халқаро журнали 4.
5. Nasulloyevna, Abdullayeva Nilufar. "Maqollardagi Mushtaraklik Xususiyatlari." *Oliy Va O ‘Rta Maxsus Ta ’lim Vazirligi Farg ‘Ona Davlat Universiteti* 356 (2022).
6. Абдуллаева, Нилуфар Насуллоевна. "Maqol Va Hikmatli So’zlarning Paremiologik Maydoni." *Международный Журнал Искусство Слова* 4.2 (2021).
7. Насуллоевна, Абдуллаева Нилуфар. "Лексические Фигуры В Пословицах (На Примере Узбекских И Французских Пословиц)." *Tilshunoslik Va Lingvodidaktikaning Istiqbolli Yo ‘Nalishlari* 206 (2023).
8. Абдуллаева, Нилуфар Насуллоевна. "Пословица И Ее Бинарная Структура." *International Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2023.
9. Абдуллаева, Нилуфар. "Описание Характеристик Пословицы На Примере Узбекских И Французских Пословиц." *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)* 32.32 (2023).